

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.I.04.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

GAIPOV JANIBEK MURATBAYEVICH

GLOBAL EKOLOGIK O'ZGARISHLAR SHAROITLARIDA QISHLOQ
XO'JALIGIDA YERDAN SAMARALI FOYDALANISHNI
TAKOMILLASHTIRISH
(Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida)

08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of the Dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
in economics Sciences**

Gaipov Janibek Muratbayevich

Global ekologik o‘zgarishlar sharoitlarida qishloq xo‘jaligida yerdan samarali
foydalanishni takomillashtirish 3

Гаипов Жанибек Муратбаевич

Совершенствование эффективного использования земли в сельском хозяйстве
в условиях глобальных экологических изменений.....29

Gaipov Janibek Muratbayevich

Improving the efficient use of land in agriculture under conditions of global
environmental changes.....57

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works61

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.I.04.12 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

GAIPOV JANIBEK MURATBAYEVICH

GLOBAL EKOLOGIK O‘ZGARISHLAR SHAROITLARIDA QISHLOQ
XO‘JALIGIDA YERDAN SAMARALI FOYDALANISHNI
TAKOMILLASHTIRISH
(Qoraqalpog‘iston Respublikasi misolida)

08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Nukus – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Iqt5661 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.karsu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Kudaibergenov Azamat Shamuratovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar: Ubaydullaev Kayrulla
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Safieva Nigora Nurmuxamadovna
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: Abu Rayhan Beruniy nomidagi Urganch davlat
univeristeti

Dissertatsiya himoyasi Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.I.04.12 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil " 28 " 03 kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (484 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch. Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-60-78, e-mail: karsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil " 13 " 03 kuni tarqatildi.
(2026-yil " 13 " 03 dagi № 119 raqamli reestr bayonnomasi)


J.K.Sauxanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor


R.B.Utemuratov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, PhD., dotsent


B.S.Qalmuratov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzabrligi va zarurati. Jahon iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo‘jaligida yerdan samarali foydalanish oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash, resurslar cheklanganligi sharoitida mahsulot hajmini barqaror oshirish va atrof-muhit yuklamasini kamaytirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Yer maydoni biologik va iqtisodiy jihatdan cheklangan resurs bo‘lgani uchun, uni intensiv va barqaror usullarda foydalanish (hosildorlikni oshirish, agrotexnologiyalarni yangilash, tuproq unumdorligini tiklash) global miqyosda «yashil o‘shish» konsepsiyasini amalga oshirish bilan bevosita bog‘liqdir. Jahon banki, BMT FAO va IPCC (Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha hukumatlararo ekspertlar guruhi) ma‘lumotlariga ko‘ra, “har yili dunyo bo‘ylab 12 million gektardan ortiq unumdor yerlar yaroqsiz holga kelmoqda”¹. Aholi sonining tez o‘shishi va oziq-ovqat xavfsizligiga bo‘lgan talab ortib borayotgan sharoitda, mavjud yer resurslaridan samarali, barqaror va uzoq muddatli foydalanish masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yerdan samarali foydalanish, shuningdek, qishloq xo‘jaligida qo‘shimcha qiymat yaratish, qishloq aholisining daromadlarini oshirish va hududlar o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy disbalanslarni qisqartirishga xizmat qiladi. Shu sababli, qishloq xo‘jaligida yerdan samarali foydalanishning nazariy-metodologik asoslari va amaliy mexanizmlarini ilmiy tadqiq etish dolzarb va maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jahon miqyosida qishloq xo‘jaligida yerdan samarali foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar yer resurslarining cheklanganligi, iqlim o‘zgarishi va oziq-ovqat xavfsizligi xavflari sharoitida agrar siyosat va yerdan foydalanish munosabatlarini qayta ko‘rib chiqish zarurati bilan izohlanadi. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlari sifatida yerdan foydalanish samaradorligini baholashning ekonometrik va statistik modellarini ishlab chiqish, aniq (precision) dehqonchilik va raqamli agrotexnologiyalar asosida hosildorlikni oshirish usullarini qo‘llash, yer resurslarini boshqarishda institutsional islohotlar va mulkchilik munosabatlarini takomillashtirish, iqlimga moslashuvchan “climate-smart agriculture” yondashuvlarini joriy etish hamda GIS va masofaviy zondlash texnologiyalari asosida yerdan foydalanishni monitoring qilish tizimlarini rivojlantirish kabi yo‘nalishlar e‘tirof etilmoqda.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida yerdan samarali foydalanishni ta‘minlash maqsadida yer-suv resurslarini inventarizatsiya qilish, kadastr ma‘lumotlarini raqamlashtirish, melioratsiya va irrigatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish hamda yuqori qo‘shimcha qiymatli ekinlarga bosqichma-bosqich o‘tishga qaratilgan kompleks vazifalar belgilangan. Hukumat qarorlari va tarmoq dasturlari doirasida yer unumdorligini oshirish, degradatsiyaga uchragan maydonlarni tiklash va suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha aniq indikatorlar va monitoring mezonlari joriy etilmoqda; bu borada “yer resurslaridan barqaror va oqilona foydalanish oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning asosiy omillaridan biri

¹ Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC). Special Report on Climate Change and Land (SRCCL). 2019. Chapter 4: Land Degradation.

hisoblanadi” degan fikr xalqaro tashkilotlar, jumladan, FAO tahlillarida alohida ta’kidlanadi.² Shuningdek, agrar sohada yerdan samarali foydalanishni takomillashtirishga doir milliy islohotlarning muvaffaqiyatini ta’minlash uchun mazkur yo’nalishga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish, xususan, resurslar taqsimoti va hosildorlik o’rtasidagi iqtisodiy bog’liqliklarni modellashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son “O‘zbekiston - 2030” strategiyasini “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”, 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-son “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2017-yil 9-oktabrdagi PF-5199-son “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo‘jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 10-oktabrdagi PQ-3318-son “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 30-dekabrda 914-son “Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori va ushbu sohadagi boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika ilm-fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq tarzda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Global ekologik o‘zgarishlar sharoitida qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan samarali foydalanishni takomillashtirish masalasi bugungi kunda nafaqat O‘zbekistonda, balki jahon miqyosida ham dolzarb bo‘lib, bu yo‘nalishda ko‘plab agrar-iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, qishloq xo‘jaligida yer resurslari va ulardan foydalanish tizimini modernizatsiya qilish, yer bozorining shakllanish metodologiyasi, uning faoliyat yuritish mexanizmlari, tartibga solish uslublari hamda samaradorlik ko‘rsatkichlari masalalari ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Bu borada klassik siyosiy iqtisod namoyondalari A.Smit, D.Rikardo,

² Состояние мировых земельных и водных ресурсов для производства продовольствия и ведения сельского хозяйства: Системы на пределе (SOLAW 2021). Доклад ФАО по теме. - Рим : ФАО, 2021. - URL: www.fao.org

F.Kene, U.Petti, A.Marshall, Dj.S.Mill kabi mutafakkirlarning asarlarida yer munosabatlari, ayniqsa yer bozori muammolari chuqur tahlil qilingan³.

Yer resurslaridan foydalanish tizimining iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy jihatlari, yerlarni baholash, hisobga olish, ro'yxatdan o'tkazish, yer tuzish ishlari va foydalanish samaradorligi kabi muhim jihatlari esa MDH davlatlari olimlari - Ye.Meshaninova, I.Degtyarev, D.Novikov, M.A.Gendelman, K.Tixonova, A.A.Golub, K.Papenov, V.Gerasimovich, I.V.Popovich va boshqalar tomonidan atroflicha o'rganilgan⁴.

O'zbekiston sharoitida esa ushbu mavzudagi ilmiy izlanishlar A.K.Bazarov, G.K.Saidova, O.Murtazaev, F.Q.Qayumov, A.A.Abdug'aniev, A.R.Babajonov, M.V.Kim, Q.R.Raxmonov, T.X.Farmonov, A.Latipov, R.H.Husanov, N.S.Xushmatov, K.Ubaydullaev, A.S.Chertoviskiy, Q.A.Choriev, S.Avezbaev, M.S.Abdullaeva, Ye.F.Trushin, Sh.T.Yergasheva, O'P.Umurzakov va A.M.Sodiqov kabi yetuk agrar iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida alohida o'rin egallagan bo'lib, ular global iqlim o'zgarishlari sharoitida yer resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlashga yo'naltirilgan ilmiy-amaliy yondashuvlar asosini yaratishga xizmat qilmoqda⁵.

³ А.Смит. Исследования о природе и причинах богатства народа. Шедевры мировой экономической мысли. - Петрокоммерц, 1993. - с.56; У.Петти. Трактат о налогах и сборах. Шедевры мировой экономической мысли. - Петрокоммерц, 1993. - с.33; Д.Рикардо. Начала политической экономии и налогового обложения. Шедевры мировой экономической мысли. - Петрокоммерц, 1993. - с.112; К. Маркс. Капитал. Критика политической экономии. - М.: Издательство политической литературы. - 1962. - с.183; А.Маршалл. Принципы политической экономии. т. 1. М.: Прогресс, 1983. - с.243; Дж.С.Милль. Основы политической экономии. т.2. М.: Прогресс, 1980. - с.150.

⁴ Е.Г.Мещанинова. Формирование экономического механизма устойчивого землепользования. Журнал Землеустройство, кадастр и мониторинг земель, 2012. №3. - с.23-29; Д.В.Новиков. Совершенствование экономического механизма организации рационального использования и охраны земельных ресурсов. Журнал Землеустройство, кадастр и мониторинг земель, 2012. №12. - с.14-19; Дегтярев И. Земельный кадастр. - М.: Колос, 1979. - 463 с.; М.А.Гендельман. Рациональное использование земельных ресурсов в связи с развитием специализации и концентрации сельскохозяйственного производства // М.: 1978, Т.1. - с. 112-123; К.В.Папенков. Экономика природопользования. - Э40М., ТЕИС, ТК Велби, 2008. - 928 с., И.В.Попович. Методика экономических исследований в сельском хозяйстве // М.: Экономика, 1982. - 217 с.; К.В.Тихонова. Эколого-экономические аспекты формирования сельскохозяйственного землепользования. дис ... канд. экон. наук. - Ростов-на-Дону, 2010. - 142 с.; В.Н.Герасимович, А.А.Голуб. Методология экономической оценки природных ресурсов. - М.: Наука. 1988. - 141 с.

⁵ Базаров А.К. Экономические и методологические основы системного землепользования Узбекистана в рыночных условиях. дис... д.э.н., Ташкент, 2009. - 325 с.; Saidova G. Yerga renta to'lovining tabiati va roli haqida J. // O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi. T.: 2003. №10; Farmonov T.X. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish istiqbollari. - T. Yangi avlod, 2004. - 143 b.; O.Murtazaev, F.B.Ahrorov. Qishloq ho'jaligi iqtisodiyoti. T. ILM ZIYO, 2017. - 416 b.; Абдуганиев А. Повышение экономической эффективности использования орошаемых земель в Узбекистане - Т.: Фан, - 118 б.; Чертовичский А., Базаров А. Система землепользования Узбекистана. - Т. Фан. 2007. - 415 с.; Трушин Э.Ф. Реформирование земельно-водных отношений как условия экономического роста (на примере Республики Узбекистан): автореф дис. ... док. экон. наук. - Т.: 1996. - 45 с.; Абдуллаева М.С. Углубление экономических реформ и совершенствование системы управления в АПК Республики Узбекистан. дис. ... канд. экон. наук. - Т. 1997. - 157 с.; Ergasheva Sh.T. Qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish jarayonlarini modellashtirish: dis. ... iqt. fan. nomz. -Т., 2004. - 154 б.; Ким М.В. Эффективность реконструкции орошаемых земель и пути ее развития: дис. ... канд. экон. наук. - Т., 2001. - 148 с.; Latipov A. Yerdan foydalanish va soliq solish.T., Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyoti uyi. - 2005 y.; Ubaydullaev K. Orolbo'yi ekologik sharoitida ishlab chiqarish resurslaridan foydalanishni modellashtirish va samaradorligini oshirish yo'llari: i.f.d.dissertatsiyasi. - Т., 2005. - 315 б.; Чариев К.А. Проблемы аграрного ресурсного потенциала в условиях перехода к рынку - Т., Фан. 1992. - 256 б.; Avezbaev S. Yer tuzish iqtisodi. - T. Yangi asr avlodi, 2002. - 286 б.; Xushmatov N.S. G'o'za seleksion navlari iqtisodiy samaradorligini baholashning uslubiy asoslari. (Monografiya). - Т., Yangi asr avlodi. - 122 б.; Raxmonov Q.R. Yer resurslarini boshqarish.O'quv qo'llanma.TIMI, Toshkent. 2008. - 161 б.; Хусанов Р.Х. Аграрная реформа: теория, практика, проблемы. - Т.: Ўзбекистон, 1994. - 73 б.; Каюмов Ф., Ким В. Экономический механизм улучшения использования земельно-

Global ekologik o'zgarishlar sharoitida O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish tizimini takomillashtirish, eng avvalo, ushbu tarmoqda asosiy yer foydalanuvchilari bo'lgan fermer, dehqon va tomorqa xo'jaliklari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni talab etadi. Iqlim o'zgarishlari ta'sirida yuzaga kelayotgan suv tanqisligi, yer degradatsiyasi, hosildorlikning pasayishi kabi muammolar qishloq xo'jaligida resurslardan oqilona va samarali foydalanish masalasini yanada keskinlashtirmoqda. Shu bilan birga, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, tarmoqni barqaror rivojlantirish, yer resurslarini ekologik va iqtisodiy jihatdan samarali boshqarish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Aynan shu omillar mazkur mavzuni - "Global ekologik o'zgarishlar sharoitida qishloq xo'jaligida yer resurslaridan samarali foydalanishni takomillashtirish"ni ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida tanlash zaruratini yuzaga keltirdi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Qoraqalpoq davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi global ekologik o'zgarishlar sharoitida qishloq xo'jaligida yer resurslaridan samarali foydalanish tizimini ilmiy asosda takomillashtirish va uni barqaror boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yerdan foydalanishni boshqarish bo'yicha mavjud nazariy yondashuvlarni tahlil qilish;

global ekologik o'zgarishlarning qishloq xo'jaligi yerlariga ta'sirini o'rganish;

ilg'or xorijiy davlatlar tajribasida yerdan foydalanish amaliyotini tahlil qilish;

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish holatini baholash;

yerdan foydalanish tizimidagi institutsional va iqtisodiy muammolarni aniqlash;

barqaror yerdan foydalanishning iqtisodiy va ekologik mexanizmlarini taklif etish;

milliy sharoitga mos adaptiv yondashuvlar asosida foydalanish modelini ishlab chiqish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish va prognoz parametrlarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi va Qoraqalpog'iston Respublikasi yer resurslari va ulardan foydalanuvchi xo'jalik subyektlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmetini global ekologik o'zgarishlar ta'sirida qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish jarayonlari, ularni boshqarish, tartibga solish va

водных ресурсов. - Т.: Мехнат 1989. - 48 б.; Umurzakov O'. P Kichik biznes va tadbirkorlik.O'quv qo'llanma. Toshkent. Sano-standart, 2014. - 480 b.; Методологические вопросы разработки стратегий долгосрочного развития. Материалы 5-Форума экономистов. Под общей ред. Садыкова А.М. Т.,2013. - 512 с.; Babajonov A.R. Yer kadastrı.T.,TIMI,2008. - 220 b.

samaradorligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy va institutsional munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy taqqoslama tahlil, monografik tadqiqotlar, so'rovnomalar o'tkazish, mantiqiy va abstrakt fikrlash va VECM modeldan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

yer resurslaridan foydalanish samaradorligini ekologik, iqtisodiy va biotik ko'rsatkichlar asosida integral tarzda baholaydigan "Agroekologik samaradorlik integral indeksi (ASII)" qiymatlari asosida yuqori samaradorlik zonasi ($ASII_{yu} \geq 0,8$), o'rta samaradorlik zonasi ($0,5 \leq ASII_o < 0,8$), past samaradorlik zonasi ($ASII_p < 0,5$) chegaralarini belgilash orqali samarali va takomillashtirishga muhtoj maydonlarni aniqlash taklifi ishlab chiqilgan;

yer, suv, atmosfera, inson faoliyati tizimi sinergetik nazariya asosida tahlil qilinib, agroekotizimlar uchun moslashuv chegarasi (MCh)ni belgilaydigan geokotizimli adaptiv-menejment modelining amal qilish mexanizmi holatni aniqlash va ma'lumot yig'ish yo'nalishi bo'yicha yer holati indeksi ($EHI \geq 70$), suv balans koeffitsiyenti ($SBK \geq 0,8$), harorat anomalligi ($HA \leq +1^\circ C$), antropogen yuklama ($AYu \leq 2 \text{ t/ha/yil}$) ko'rsatkichlari orqali takomillashtirilgan;

qishloq xo'jaligi yerlarining ekologik holatini baholashda yer qobig'i degradatsiyasi jarayonlari, global ekologik o'zgarishlar va agroekologik barqarorlik indeksini birlashtiruvchi "Agroekologik-litosferaviy integratsion modeli" parametrlari o'lchov birligi, ma'lumot yig'ish intervali, monitoring chastotasi, ma'lumot manbasini aniqlashtirish orqali takomillashtirilgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarining 2028-yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

fermer va dehqon xo'jaliklarining yer resurslaridan foydalanish samaradorligi aniq baholanib, ekologik xavf darajasi yuqori hududlarda yondashuvlar farqlashtirildi hamda resurslarni tejash bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilgan;

hududning agroiqlimiy va ekologik xususiyatlariga mos strategik boshqaruv mexanizmi ishlab chiqilib, pilot tumanlarda tajriba tariqasida joriy etildi va suv resurslaridan foydalanish samaradorligi 15-20% ga oshishi ta'minlangan;

tahlillar asosida yer ajratish, monitoring va nazorat tizimidagi asosiy to'siqlar aniqlanib, sohaga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish uchun asos bo'luvchi takliflar ishlab chiqildi va mutasaddi tashkilotlarga taqdim etilgan;

prognoz modellari asosida yerdan foydalanish natijalarining 3-5 yillik rivojlanish ssenariylari shakllantirilib, ularning asosida mintaqaviy yer-suv resurslarini rejalashtirish tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan ilmiy-uslubiy yondashuv va tahlil metodlarining tadqiqot maqsad va vazifalariga to'liq muvofiqligi, ularning ilmiy asoslanganligi, shuningdek, monografik tahlillar hamda statistik axborotlarning ishonchli rasmiy manbalarga

tayanib yig'ilganligi bilan ta'minlangan. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil usullarining manzilli va maqsadga yo'naltirilgan holda qo'llanilishi, ilgari surilgan ilmiy xulosa va takliflarning amaliyotda sinovdan o'tkazilishi hamda amaliy faoliyatda tatbiq etilganligi tadqiqot natijalarining ishonch darajasini yanada kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi xulosa va takliflardan O'zbekistonda qishloq xo'jaligi yer resurslaridan foydalanish tizimini va uni tartibga solish mexanizmlarini zamonaviy bozor tamoyillari asosida takomillashtirishga qaratilgan nazariy-metodologik asoslarni kengaytirish, agrar sohadagi iqtisodiy munosabatlarni chuqur tahlil etish va ularni takomillashtirishga qaratilgan maxsus ilmiy tadqiqotlar, strategik hujjatlar ishlab chiqish, shuningdek ilmiy-amaliy faoliyatda qo'llanilishi mumkin bo'lgan konseptual yondashuvlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ilgari surilgan amaliy tavsifdagi xulosa va takliflardan fermer va dehqon xo'jaliklarining yer resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash, hududning agroiqlimiy va ekologik xususiyatlariga mos strategik boshqaruv mexanizmi ishlab chiqish, yer ajratish, monitoring va nazorat tizimini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Global iqlim o'zgarishi sharoitida qishloq xo'jaligida yerdan samarali foydalanishni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

yer resurslaridan foydalanish samaradorligini ekologik, iqtisodiy va biotik ko'rsatkichlar asosida integral tarzda baholaydigan "Agroekologik samaradorlik integral indeksi (ASII)" qiymatlari asosida yuqori samaradorlik zonasi ($ASII_{yu} \geq 0,8$), o'rta samaradorlik zonasi ($0,5 \leq ASII_o < 0,8$), past samaradorlik zonasi ($ASII_p < 0,5$) chegaralarini belgilash orqali samarali va takomillashtirishga muhtoj maydonlarni aniqlash taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi subyektlari faoliyatida amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 3-oktabrdagi 04/010-3745-son ma'lumotnomasi). Mazkur tizimning amaliyotga joriy etilishi natijasida yer, suv va biotik omillarni kompleks ravishda hisobga olgan holda foydalanish samaradorligi raqamli ko'rsatkich orqali baholanib, agro-yer resurslarini boshqarishda xatarlar aniq ko'rib, iqtisodiy va ekologik foyda bir vaqtning o'zida sezilarli darajada oshgan;

yer, suv, atmosfera, inson faoliyati tizimi sinergetik nazariya asosida tahlil qilinib, agroekotizimlar uchun moslashuv chegarasi (MCh)ni belgilaydigan geokotizimli adaptiv-menejment modelining amal qilish mexanizmi holatni aniqlash va ma'lumot yig'ish yo'nalishi bo'yicha yer holati indeksi ($EHI \geq 70$), suv balans koeffitsiyenti ($SBK \geq 0,8$), harorat anomalligi ($HA \leq +1^\circ C$), antropogen yuklama ($AYu \leq 2 t/ha/yil$) ko'rsatkichlari orqali takomillashtirish taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi subyektlari faoliyatida amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-

yil 3-oktabrdagi 04/010-3745-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida agroekosistemalarning yer-suv-atmosfera-inson tizimi kontekstida barqaror boshqaruvi yo'lga qo'yish, resursdan ortiqcha foydalanish holatlarini aniqlash, moslashtiruvchi choralar orqali degradatsiya xavfini sezilarli darajada kamaytirish imkoni yaratilgan;

qishloq xo'jaligi yerlarining ekologik holatini baholashda yer qobig'i degradatsiyasi jarayonlari, global ekologik o'zgarishlar va agroekologik barqarorlik indeksini birlashtiruvchi "Agroekologik-litosferaviy integratsion modeli" parametrlari o'lchov birligi, ma'lumot yig'ish intervali, monitoring chastotasi, ma'lumot manbasini aniqlashtirish orqali takomillashtirish taklifi Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi subyektlari faoliyatida amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 3-oktabrdagi 04/010-3745-son ma'lumotnomasi). Mazkur qishloq xo'jaligi yerlarining degradatsiyasi aniq belgilandi, global ekologik o'zgarishlar nazorat qilina boshladi va agroekologik barqarorlik indeksi (ABI) bo'yicha yuqori darajadagi tahlil qilish bilan yer resurslardan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada oshgan;

Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarining 2028-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz parametrlari Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi subyektlari faoliyatida amaliyotga joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 3-oktabrdagi 04/010-3745-son ma'lumotnomasi). Mazkur prognozlarning amaliyotga joriy etilishi natijasida prognoz modellari asosida yerdan foydalanish natijalarining 3-5 yillik rivojlanish ssenariylari shakllantirilib, ularning asosida mintaqaviy yer-suv resurslarini rejalashtirish tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola (5 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi tarkibiy jihatdan kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 184 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi, vazifalari, obykti va predmeti, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning "**Global ekologik o'zgarishlar sharoitida yer resurslaridan samarali foydalanishning nazariy-metodologik asoslari**" nomli

birinchi bobida yerdan foydalanishni boshqarishning nazariy yondashuvlari va metodologik asoslari, global iqlim o'zgarishlari va ularning qishloq xo'jaligi yerlariga ta'siri, yerdan foydalanishni tartibga solishda xorijiy tajribalar jumladan, ilg'or davlatlar amaliyoti va tahlili amalga oshirilgan va ilmiy asoslangan.

Bugungi kunda O'zbekistonda ham mintaqaviy ekologik-iqtisodiy nomutanosibliklarning kuchayishi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda sezilarli to'siqlarga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, dehqonchilik uchun yaroqli yer maydonlarining qisqarib borayotgani, ularning ifloslanishi, eroziyaga uchrashi va unumdorligining kamayishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining umumiy samaradorligini pasaytirib yubormoqda. Bu esa o'z navbatida qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmi va sifatining pasayishiga olib keladi. Yer - biotizimning ajralmas qismi va agrar ishlab chiqarishdagi asosiy omil bo'lib, ko'p funksiyali resurs sifatida e'tirof etiladi.

Milliy iqtisodiyotning, ayniqsa qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi yer resurslarini boshqarishda ilmiy yondashuvga asoslanishi shart. So'nggi yillardagi agrar va yer islohotlari tajribasi shuni ko'rsatdiki, ularning natijadorligining past bo'lishi - ko'pincha, ilmiy asoslangan yondashuvlar va mexanizmlarning yo'qligi, shuningdek, amaliyotda sinovdan o'tgan islohot dasturlarining yetarli emasligi bilan bog'liq bo'lgan. Bundan tashqari, islohotlar jarayonida ko'pincha mahalliy tabiiy-iqlimiy sharoitlar va ijtimoiy-iqtisodiy holatlar to'liq hisobga olinmagan. O'zbekiston sharoitida yer resurslaridan foydalanish va yer egaligi sohasida hududiy (mintaqaviy) hamda tarmoqqa xos xususiyatlar to'liq inobatga olinmagan, shuningdek, samarali va adolatli yer munosabatlarini tashkil etish uchun yetarli qonunchilik bazasi hali to'liq shakllanmagan. Shu sababli, bozordagi sharoitlarda yer resurslarini yanada optimal va samarali boshqarish imkonini beradigan iqtisodiy mexanizmlarni yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu orqali yer munosabatlari tizimini barqaror ekologik va iqtisodiy rivojlanish yo'lida izchillik bilan rivojlantirish mumkin bo'ladi. Davlat agrar siyosatini amalga oshirish maqsadida yer resurslaridan foydalanishni strategik boshqarish tizimida ilm-fan va amaliyotni integratsiya qilish jarayoni muhim ahamiyatga ega. Chunki qishloq xo'jaligi yer resurslaridan foydalanishga asoslangan bo'lib, bu jarayon jonli tizim - ya'ni, yer maydoni va qishloq xo'jaligi ekinlari o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'z ichiga oladi. Shuning uchun yer va ekinlar foydalarini maksimal darajada uyg'unlashtirish uchun ilmiy yondashuv zarur (1-rasmga qarang).

Zamonaviy dunyoda yer resurslarini samarali va barqaror boshqarish har bir davlat uchun muhim vazifa hisoblanadi. Shu bois, yerdan foydalanishni tartibga solishda ilg'or davlatlarning tajribasini o'rganish va tahlil qilish milliy qonunchilik va amaliyotni takomillashtirishda katta ahamiyat kasb etadi. Xorijiy mamlakatlarda yerdan foydalanish tizimlari odatda davlat boshqaruvi, bozor mexanizmlari, ekologik talablar va ijtimoiy adolat tamoyillari asosida shakllantirilgan. Misol uchun, Yevropa Ittifoqining ayrim davlatlarida yerga egalik, foydalanish va himoya masalalarini tartibga soluvchi keng qamrovli qonunlar mavjud bo'lib, ular yerni ko'p qirrali, iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy jihatdan kompleks boshqarish imkonini beradi.



1-rasm. Yer resurslaridan foydalanishni tartibga solish mexanizmining struktura sxemasi⁶

⁶ Muallif ishlanmassi

AQSh, Germaniya, Kanada kabi ilg'or davlatlarda yerdan foydalanish rejalashtirishining aniq mexanizmlari va monitoring tizimlari tashkil qilingan. Bu davlatlarda yer resurslari yer uchastkalari bo'yicha batafsil kadastr ma'lumotlari asosida boshqariladi, yerning qishloq xo'jaligi, sanoat, urbanizatsiya va ekologik ehtiyojlar uchun taqsimlanishi qat'iy nazorat ostida bo'ladi. Shuningdek, yer solig'i, yer ijarasi, yerlarni almashish va sotish tartiblari ham mavjud bo'lib, ular yer bozorining shaffofligi va raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning **“Mamlakatda yer resurslaridan foydalanishning hozirgi holati va samaradorligi”** deb nomlangan ikkinchi bobida qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish tizimining joriy holati va mavjud tendensiyalar, yerdan foydalanishni boshqarishda institutsional va iqtisodiy muammolar, zamonaviy holat va yechimlar, barqaror yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy va ekologik mexanizmlari tahlil qilingan hamda takomillashtirilgan.

1-jadval

O'zbekiston Respublikasi Yer fondining toifalari bo'yicha taqsimlanishi (01.01.2024 holatiga) (ming ga. hisobida)⁷


	Yer fondining toifalari	Umumiy yer maydon		Shu jumladan, sug'oriladigan yerlar	
		Jami	Foiz hisobida	Jami	Foiz hisobida
1	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar	26 132,2	58,21	4 226,2	9,41
2	Aholi punktlarining yerlari	226,7	0,51	50,9	0,11
3	Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar	786,9	1,75	12,6	0,03
4	Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar	3 223,3	7,18	0,9	0,002
5	Tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar	15,0	0,03		
6	O'rmon fondi yerlari	12 092,5	26,94	45,4	0,10
7	Suv fondi yerlari	827,3	1,84	4,6	0,01
8	Zahira yerlar	1 588,5	3,54	1,9	0,004
	Jami yerlar:	44892,4	100,0	4 342,5	9,67

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi yerlarining holati va ulardan foydalanish tuzilmasi oxirgi yillarda sezilarli o'zgarishlarga duch kelmoqda. 2022-yil holatiga ko'ra, mamlakat yer maydonining taxminan 58,48 foizi qishloq xo'jaligi maqsadlariga ajratilgan bo'lib, bu ko'rsatkich tarixiy nuqtai nazardan (1992-2022 yillar oralig'ida) o'rtacha 60,79 foizni tashkil qilgan. Demak, so'nggi yillarda bu ko'rsatkich biroz pasaygan. 2021-yilda qishloq xo'jaligi yerlarining umumiy maydoni 256 906 kvadrat kilometrni tashkil etgan bo'lib, bu 2020-yilga nisbatan biroz ko'payganini ko'rsatadi. Turar joylar, mahallalar va shahar-qishloq

⁷ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ma'lumotlari asosida tuzilgan. <https://kadastr.uz/uz/etirof-etish-reja-jadvali>

infratuzilmasiga ajratilgan yerlar 226,7 ming gektarni yoki 0,51 % ni tashkil etadi. Ulardan 50,9 ming gektari (0,11 %) sug'oriladigan hisoblanadi. Ushbu yerlar asosan yashash joylari va unga tutash ijtimoiy obyektlarga mo'ljallangan. Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa toifadagi yerlar 786,9 ming gektarni (1,75 %) tashkil etib, sanoat va texnik infratuzilmalarni joylashtirish uchun xizmat qiladi. Bu yerlarning atigi 12,6 ming gektari (0,03 %) sug'oriladi, bu ularda dehqonchilik yoki bog'dorchilik deyarli olib borilmasligini anglatadi. Tabiatni muhofaza qilish va dam olish hududlari uchun ajratilgan yerlar 3 223,3 ming gektar yoki 7,18 % ni tashkil etadi. Bunda sug'oriladigan maydon faqat 0,9 ming gektar bo'lib, umumiy fondagi ulushi 0,002 % ni tashkil etadi. Bu yerlarda asosan ekologik muvozanatni saqlash va turizm salohiyatini oshirish maqsadlari ko'zda tutiladi. Mamlakatning tarixiy merosi bilan bog'liq obyektlar joylashgan yerlar 15,0 ming gektarni tashkil etadi (0,03 %). Bu hududlarda sug'oriladigan maydon mavjud emas, bu esa ular asosan saqlovchi va muhofaza qiluvchi toifaga kirishini anglatadi. Suv omborlari, daryo va ko'llar atrofi, kanal yo'laklari kabi suv obyektlariga tegishli yerlar 827,3 ming gektarni tashkil etib, bu 1,84 % ga teng. Sug'oriladigan yerlar ulushi esa juda kam - atigi 4,6 ming gektar (0,01 %) (1-jadvalga qarang).

Yer resurslarini boshqarishda eng avvalo qonunchilikdagi nomuvofiqlik e'tiborni tortadi. Bugungi kunda yer, suv va ekologiyaga oid qonunlar orasida zid va bir-birini inkor etuvchi jihatlar mavjud. Bu holat huquqiy noaniqlik, chalkashliklar va yer ajratishda samarasizlikka olib kelmoqda. Bu muammoni bartaraf etish uchun sohalararo uyg'unlashtirilgan, yagona va zamonaviy qonunchilik asoslarini yaratish zarur. Ikkinchi muammo - yer resurslariga oid vakolatlarining turli idoralar o'rtasida nomuvofiq taqsimlanganidir. Ko'plab muhim qarorlar bir vaqtning o'zida bir necha idora tomonidan qabul qilinadi, ammo ular orasida koordinatsiya zaif. Bu esa qarorlarning kechikishi, zidligi va mas'uliyatsizlikka olib keladi. Shu bois yer boshqaruvini markazlashtirish, ya'ni yagona vakolatli agentlik tashkil etish va idoralararo aloqalarni kuchaytirish dolzarbdir. Shuningdek, resurslarni monitoring qilish va raqamlashtirish darajasi ham past. Yer va suv resurslariga oid ma'lumotlar ko'pincha eskirgan, bo'lak-bo'lak va noaniq bo'ladi. Buning oqibatida shaffoflik pasayadi, va resurslardan noto'g'ri foydalanish holatlari yuzaga chiqadi. Bu muammoni hal qilish uchun zamonaviy texnologiyalarga asoslangan yagona raqamli kadastr tizimlarini ishlab chiqish va doimiy monitoringni joriy etish lozim. Institutsional muammolar orasida eng og'irlaridan yana biri korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvidir. Bu esa adolatsizlik, ishonch yo'qolishi va yerlarning noto'g'ri taqsimlanishiga olib kelmoqda. Bunday salbiy holatlarga barham berish uchun yer ajratish jarayonida ochiq tender tizimi, fuqarolik jamiyati nazorati va raqamli platformalardan foydalanish zarur (2-rasm qarang).



2-rasm. Global iqlim o'zgarishi sharoitida yerdan foydalanishdagi asosiy institutsional va iqtisodiy muammolar uchun yechim strategiyalari⁸

⁸ Muallif ishlanmasi

Tadqiqot natijalari doirasida yangi matematik-integral baholash tizimi taklif etildi, u qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligini ekologik, iqtisodiy va biotik ko'rsatkichlar asosida kompleks tarzda o'lchaydi. ASII quyidagi parametrlar tizimi asosida shakllantiriladi:

$$ASII = \alpha E + \beta I + \gamma B \quad (1)$$

Bu yerda,

- E - ekologik samaradorlik (tuproq degradatsiyasi indeksi, suv resurslari holati, karbon chiqindilar darajasi),
- I - iqtisodiy samaradorlik (yer rentabelligi, hosildorlik, resurs sig'imi),
- B - biotik ko'rsatkichlar (biomassa tiklanish koeffitsiyenti, biologik xilmaxillik darajasi),
- α , β , γ - har bir omilning og'irlik koeffitsiyentlari (regression tahlil orqali aniqlanadi).

Natijada, ASII tizimi yordamida yer resurslaridan foydalanish samaradorligi ko'p darajali, adaptiv va prognozli shaklda aniqlanadi. Bu indikator global ekologik o'zgarishlar sharoitida strategik boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda ilmiy asos sifatida xizmat qiladi. "Agroekologik samaradorlik integral indeksi (ASII)" metodologik jihatdan yer resurslaridan foydalanish samaradorligini ekologik, iqtisodiy va biotik omillarni bir butun tizim sifatida tahlil qilishga asoslanadi. Ushbu ilmiy yangilikning mohiyati shundaki, u yer resurslarining kompleks bahosini alohida omillar kesimida emas, balki ularning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda integral shaklda aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot obyekti qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligi bo'lib, bu samaradorlik ekologik (E), iqtisodiy (I) va biotik (B) komponentlardan iborat tizim sifatida qaraladi. Doira esa yangi matematik formula - $ASII = \alpha E + \beta I + \gamma B$ asosida belgilangan bo'lib, bu yerda α , β va γ koeffitsiyentlar regressiya tahlili yordamida aniqlanadi va ular har bir omilning umumiy samaradorlikka nisbatan og'irlik darajasini ifodalaydi. Ma'lumotlarning to'planishi bosqichida har bir komponent uchun alohida parametrlar yig'iladi: ekologik samaradorlik bo'yicha - tuproq degradatsiyasi indeksi, suv resurslarining holati, karbon chiqindilari darajasi; iqtisodiy samaradorlik bo'yicha - yer rentabelligi, hosildorlik, resurs sig'imi; biotik ko'rsatkichlar bo'yicha esa - biomassa tiklanish koeffitsiyenti va biologik xilmaxillik darajasi. Keyinchalik, regressiya tahlili orqali α , β va γ koeffitsientlar aniqlanib, ular yordamida indeksga og'irlik beriladi. Tahlil jarayoni bir necha bosqichda amalga oshiriladi: birinchi bosqichda statistik tahlil o'tkazilib, har bir komponentning dispersiyasi, tarqalish qonuniyati va o'zaro korrelyatsiyalari aniqlanadi; ikkinchi bosqichda regressiya tahlili yordamida samaradorlikka eng katta ta'sir ko'rsatadigan komponentlar va ularning og'irliklari baholanadi; uchinchi bosqichda esa har bir yer maydoni uchun E, I va B qiymatlari hisoblanib, ular koeffitsiyentlar bilan ko'paytiriladi va natijada ASII qiymati olinadi; to'rtinchi bosqichda indeks bo'yicha tasniflash amalga oshirilib, yer maydonlari yuqori, o'rta va past samaradorlik darajalari bo'yicha zonalarga ajratiladi.

“Agroekologik samaradorlik integral indeksi (ASII)”ning amal qilish mexanizmi⁹

№	Yo‘nalish nomi	Aniq ko‘rsatkichlar (indikatorlar)	Kutilayotgan natijalar	Kutilayotgan ko‘rsatkichlar
1	Ma’lumot yig‘ish va tayyorlov	E (ekologik samaradorlik) parametrlari: tuproq degradatsiyasi indeksi, suv resurslari holati, karbon chiqindilari I (iqtisodiy samaradorlik): yer rentabelligi, hosildorlik, resurs sig‘imi B (biotic ko‘rsatkichlar): biomassa tiklanish koeffitsiyenti, biologik xilma-xillik darajasi	Ma’lumotlar to‘liq yig‘iladi, har bir ko‘rsatkich bo‘yicha holat belgilanadi	E, I, B har biri uchun ma’lumotlar $\geq 90\%$ to‘liq
2	Indeks formulasi va hisoblash	ASII = $\alpha E + \beta I + \gamma B$ formulasini qo‘llash α, β, γ og‘irlik koeffitsiyentlari regressiya orqali aniqlanadi	Har bir yer maydoni yoki agroekosistema uchun ASII qiymati olinadi	$\alpha + \beta + \gamma = 1$ (masalan); ASII indeks ≥ 0.8 - yaxshi holat
3	Tahlil va zonalashtirish	ASII qiymatlari asosida zonalashtirish: yuqori samaradorlik, o‘rta, past samaradorlik zonalarini	Qaysi maydonlar samarali, qaysilari takomillashtirishga muhtojligi aniqlanadi	Yuqori samaradorlik zonasi: ASII ≥ 0.8 O‘rta: 0.5-0.8 Past: < 0.5
4	Boshqaruv tavsiyalari va amaliy chora-tadbirlar	Past ASII zonalarini uchun strategiyalar: degradatsiyani kamaytirish, ekologik chora-tadbirlar, resurs tejash Yuqori ASII zonalarini uchun barqaror foydalanish rejimi	Samaradorlikni oshirishga yo‘naltirilgan boshqaruv joriy qilinadi	Samaradorlik oshishi: ASII zonalarida yillik +5-10% o‘shish
5	Monitoring va qayta baholash	ASII har yili yangilanadi; E, I, B komponentlari monitoring qilinadi	Ma’lumotlar doimiy yangilanadi, indeksga asoslangan strategiya takomillashtiriladi	Har yil ASII qiymati +0.02 (2%) yoki ko‘proq o‘shish ko‘rinadi

⁹ Muallif ishlanmasi


Shunday qilib, ASII modelining mexanizmi quyidagicha: ma'lumot yig'ish → indeksni hisoblash → zonalashtirish → boshqaruv choralari → monitoring va qayta sozlash. Har bosqichda aniq ko'rsatkichlar va kutilayotgan natijalar belgilangan. Ilmiy ish doirasida har bir bosqichdagi ko'rsatkichlarni o'lchab, real natijalar bilan kutilayotgan natijalarni taqqoslab, modelning samaradorligini baholash mumkin (2-jadvalga qarang).

Dissertatsiyaning **“Qishloq xo'jaligida yerdan samarali foydalanish strategiyalari va ularni takomillashtirish yo'nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida global ekologik o'zgarishlar sharoitida yerdan foydalanishni tartibga solishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, Qoraqalpog'iston Respublikasida agrar sohada barqaror yer resurslaridan foydalanish mexanizmini shakllantirishning konseptual jihatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilingan va prognoz parametrlari ishlab chiqilgan. Yer solig'i va boshqa to'lovlar bilan bog'liq masalalar ko'p qirrali va murakkab bo'lib, ularni bir tadqiqot doirasida to'liq hal etish qiyin. Shu bois, biz ushbu muammoni hal etishning konseptual yondashuvlarini belgilashni maqsad qildik. O'zbekistonda amalga oshirilgan ko'p yillik yer islohotlari tajribasiga va xalqaro amaliyotga asoslangan holda, pullik yer munosabatlari tizimini shakllantirish va uning iqtisodiy funksiyasini amalga oshirishning eng muhim qoidalarini ajratib ko'rsatishni maqsad qilib oldik.

Shuni ta'kidlash lozimki, pullik yer munosabatlari mexanizmini takomillashtirish zarurati agrar sektorda mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarining xilma-xilligi amaliyotidan kelib chiqadi. Bundan tashqari, bu mexanizm yer foydalanuvchilarini qishloq xo'jaligi tarmoqlarining hududiy joylashuvini optimallashtirishga, hududni bir tekis o'zlashtirishga va qishloq joylarini rivojlantirishning ishlab chiqarish hamda ijtimoiy vazifalarini yanada samarali hal etish maqsadida ulardan intensiv foydalanishga yo'naltirishi kerak. Qishloq xo'jaligi yerlarini meliorativ-irrigatsion jihatdan yaxshilash va ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish choralari ham kam ahamiyatga ega emas. Bunda belgilanadigan yer to'lovlari yerning tanqisligi bilan chambarchas bog'liq bo'lishi va unga bo'lgan talabning o'sishi hamda yer foydalanuvchilarining moliyaviy imkoniyatlari hisobga olingan holda oshib borishi kerak.

Shu sababli, qishloq xo'jaligi majmuasida yer munosabatlarini tartibga solishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, xususan, yer foydalanuvchilarning iqtisodiy manfaatlarini maksimal darajada hisobga olgan holda, iqtisodiy ta'sir vositalarini keng qo'llash va yaxshilash zarur.

Yuqorida qayd etilgan konseptual qoidalarga asoslanib, biz pullik yer munosabatlarining yaxlit mexanizmini shakllantirish strukturasi taklif qildik. Bu struktura yerdan foydalanish uchun turli to'lov shakllarini yanada samarali va natijali qo'llash uchun tegishli shart-sharoitlarni yaratadi. Pullik yer munosabatlari mexanizmi to'rtta tarkibiy qism (blok)dan iborat bo'lib, ularning har biri o'zining nisbatan mustaqil iqtisodiy mazmuni va ta'sir doirasiga ega bo'lgan tegishli tartibga solish usullari va vositalariga ega (3-rasmga qarang).



3-rasm. Pullik yer resurslaridan foydalanish mexanizmining strukturaviy sxemasi¹⁰

¹⁰ Muallif ishlanmasi

Yer, suv, atmosfera, inson faoliyati tizimi sinergetik nazariya asosida tahlil qilinib, agroekosistemalar uchun moslashuv chegarasi (Mch) belgilaydigan **“Geoekosistemali adaptiv-menejment modeli”** ishlab chiqildi.

Mazkur modelning ilmiy mohiyati quyidagilardan iborat:

- Tizim **“yer - suv - atmosfera - inson faoliyati”** o‘zaro bog‘liqligini sinergetik nazariya asosida tahlil qiladi;
- Yer resurslarining ekologik degradatsiyasiga qarshi boshqaruv choralari sinergetik barqarorlik funksiyasi orqali aniqlaydi;
- Modelga ko‘ra, har bir agroekosistema uchun “moslashuv chegarasi (Mch)” aniqlanadi, bu esa resurslardan ortiqcha foydalanish holatlarini oldindan prognozlash imkonini beradi.

Bu yondashuv natijasida resurs tejamkor va iqlimga moslashuvchan agroekosistemalarni shakllantirish uchun ilmiy-metodik asos yaratildi. Model obykti agroekosistemalar bo‘lib, ya’ni yer-suv-atmosfera-inson faoliyati tizimining bir qismi sifatida joylashgan yer resurslari, suv resurslari, atmosferik sharoit va insonning faoliyati o‘zaro munosabatda bo‘lgan jarayonlar integratsiyalashgan holda tushuniladi; doirasi esa mazkur agroekosistemalarda yer resurslarining ekologik degradatsiyasiga qarshi chora-menejmentni sinergetik barqarorlik funksiyasi orqali aniqlashni, har bir agroekosistema uchun moslashuv chegarasini (Mch) belgilashni nazarda tutadi. Shu maqsadda, tadqiqot jarayonida yer bilan bog‘liq ma’lumotlar - masalan, yer yuzasi holati, eroziya darajasi, sho‘rlanish yoki suvsizlik holatlari; suv bilan bog‘liq ma’lumotlar - yer osti suv darajasi, irrigatsiya suvining miqdori va sifati; atmosfera bilan bog‘liq ma’lumotlar - harorat, yog‘in miqdori, namlik dinamikasi; va inson faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlar - agro-texnologiyalar, ekin almashtirish, yuklamalar (o‘g‘itlar, pestitsidlar), yerdan foydalanish intensivligi - yig‘iladi. Har bir agroekosistema uchun ushbu parametrlar tayyorlanadi va ularni asos qilib “moslashuv chegarasi” $Mch = f(\text{yer holati, suv holati, atmosfera holati, antropogen yuklama})$ shaklida ifodalash mumkin. Modelning nazariy poydevori sinergetik nazariya bo‘lib, tizim ichidagi komponentlar (yer-suv-atmosfera-inson) o‘zaro aloqada bo‘lishi va barqarorlikka erishish uchun sinergiya zarur ekanligini ta’kidlaydi. Amalga oshiriladigan boshqaruv funksiyasi esa resurslardan ortiqcha foydalanish holatlarini oldindan prognozlash va shu orqali degradatsiyaga yo‘l qo‘ymaslikni ko‘zda tutadi - agar agroekosistema parametrlar bo‘yicha belgilangan Mch chegarasida ishlasa, u barqaror bo‘ladi, aks holda degradatsiya yuz beradi.

Modelning boshlang‘ich bosqichi holatni aniqlash, ma’lumot yig‘ish va maqsadni belgilash hisoblanadi. Bu bosqichda yer-suv-atmosfera-inson tizimi elementi bo‘yicha - masalan yer holati indeksi, suv balans ko‘rsatkichi, harorat anomalligi va antropogen yuklama darajasi kabi ko‘rsatkichlar aniqlanadi. Bu ichki ma’lumotlar orqali hududdagi agroekosistema holati “past”, “o‘rta”, yoki “yuqori” xavf darajasida sinflanadi. Masalan, agar yer holati indeksi ≥ 70 , suv balans koeffitsienti $\geq 0,8$ va harorat anomaliligi $\leq +1$ °C holatlarida, bu hududlar barqaror deb baholanishi mumkin. Shu bilan birga, bu bosqichda yig‘ilgan ma’lumotlar modelning keyingi bosqichlari boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish uchun baza bo‘ladi.

“Geoekosistemali adaptiv-menejment modeli”ning amal qilish mexanizmi¹¹

№	Yoʻnalish nomi	Aniq koʻrsatkichlar (indikatorlar)	Kutilayotgan natijalar	Kutilayotgan koʻrsatkichlar
1	Holatni aniqlash (baseline) va maʼlumot yigʻish	<ul style="list-style-type: none"> - Yer holati indeksi (tuproq tuzilishi, eroziya darajasi) - Suv balans koʻrsatkichi (yer osti/yer usti suv darajasi) - Atmosfera stress indeksi (harorat anomalligi, yogʻin oʻzgarishi) - Antropogen yuklama darajasi (intensivlik, oʻgʻit/pestitsid yuklamasi) 	Baseline holat aniqlanadi, maydonlar sinflanadi “past”, “oʻrta”, “yuqori” xavfga Maʼlumotlar toʻplandi va raqamli bazaga kiritildi	Yer holati indeksi ≥ 70 (yaxshi), Suv balans koeffitsiyenti ≥ 0.8 , Harorat anomalligi $\leq +1$ °C, Antropogen yuklama ≤ 2 t/ha/yil
2	Adaptiv boshqaruv strategiyasini ishlab chiqish	<ul style="list-style-type: none"> - Moslashuv chegarasi (Mch) belgilangani foizi (masalan: % agroekosistema) - Rekomendatsiyalar roʻyxati soni (yuklamani kamaytirish, sugʻorish optimallashtirish, ekin almashtirish) 	Har bir agroekosistema uchun boshqaruv rejimi ishlab chiqildi Yuklama optimallashtirish yoʻlga qoʻyildi	Mch belgilangan agroekosistemalar $\geq 90\%$ Rekomendatsiyalar qabul qilindi: har bir yilda ≥ 3 chora
